



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOLA TARBIYASIDA MUHIM OMILLAR

Xolmuminov Abrammat

Surxondaryo viloyati denov tumani 18-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, tarbiyaning ilmiy izohlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya nazariyasi, tamoyil, estetik g'oyalar.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlari, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolarini o'rganadi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida aniq maqsad asosida tashkil etiladigan hamkorlik faoliyatining kechishi, rivoji. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi sanaladi. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: - aniq maqsadga yo'naltirilganlik; - uzoq muddat davom etishi (tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi); - uzluksizligi (o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari); - yaxlit, tizimli tashkil etilishi; - ikki tomonlama aloqa hamda qarama-qarshiliklarning mavjud bo'lishi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsida ongning shakllanib borishi, histuyg'ularning rivojlanishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlarning hosil bo'lishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uning maqsadi, shakllari,



metodlari, vositalari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalashi ehtiyojiga egaligiga bog'liq. O'zini o'zi qayta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Unda eng oddiy harakatdan tortib, to keng ko'lamli ijtimoiy harakatni tashkil etishdan iborat jarayonning mohiyati yoritiladi. Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakter kasb etadi. Tarbiya jarayoni quyidagi qonuniyatlar asosida kechadi: - tarbiyaning obyektiv va subyektiv omillarga bog'liqligi; - tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro aloqadorligi; - faoliyat va munosabat shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarni shakllantirishning negizi va asosiy manbai ekanligi; - tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi. Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosda belgilanadi. Tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri quyidagilarda ko'rinadi: 1) tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma, malakalar hosil bo'ladi; 2) tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi; 3) tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin; 4) tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Tarbiya – tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda ma'lum bir maqsadga qarata va muntazam suratda ta'sir qilishidir. Bu xildagi ta'rif tarbiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani, chunonchi: muayyan dunyoqarash, axloq, ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirish, muayyan xarakter va iroda, odat va axloq yaratishni o'z ichiga oladi. Shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogic jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan



kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh ijobiy, xoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolaning shaxsiy tajribasi ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. Shuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, baholashni, his qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro'y beradi. Bola ulg'aya borishi bilan bu xil aloqa va munosabatlar murakkablashib boradi va bola shaxsning kamolga yetishida yo ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiya maqsadga muvofiq muntazam ta'sir etishni ko'zda tutadi, zeroki shu yo'l bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari tarbiyalanuvchining xulqini idora qilib turuvchi ichki ehtiyojga aylanadi. Abdulla Avloniy ilmni afzalligini quyidagicha bayon etadi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur". Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: "Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur". O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari samarali sanaladi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga mas'uliyat bilan yondoshishi kerak. "Kelajagi kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo'nalishlar uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi" Farzand kamoli uchun sarflangan mablag' va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo'ladi desak hech mubolig'a bo'lmaydi. Agar ota-ona o'z farzandiga, uning tarbiyasiga e'tibor bermasa



bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Zero, bizni chaqqan ilonning ortidan chopsak, ilon zahrlining butun tanamizga yoyilishiga sababchi bo'lamiz. Bu holatning oldini olish uchun ilonning ortidan yugirish emas, uning oldini olish kerak. Shunday ekan bolaga yoshligidan befarq bo'lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor berishi kerak. Har bir ota-ona tarbiya berar ekan, eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o'rgatishi kerak. Chunki bejizga dono xalqimiz: "Gapning boshi - kalom, odob boshi - salom." - deb bejiz aytmagan. Ota-bobolarimiz azaldan yosh avlodni chiroyli xulqli, odobli, ilimli, qobil farzand bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berishgan. Agar bola noqobil bo'lib ulg'aysa, undan faqat otaonagina emas, balki el - yurt, jamiyat, davlat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga ega. Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim". Bolani tarbiyalash haqida xalqimiz orasida ko'plab afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ertaklar yurishi ham bejiz emas. Donishmandlar bolani ona qornidan boshlab tarbiya qilish kerak deyishadi. Qachonki, bola tarbiyali bo'lsa u mukammal ilm sohibi, komil inson bo'la oladi.

Xulosa; Xullas, bolaning kamol topishi uchun o'qituvchi ham, ota-ona ham xatto o'sha bolaning o'zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o'sish bo'ladi, natija bo'ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-ona o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilimli tarbiyali bo'lishi kerak. Farzandlarimiz ilimli va tarbiyali bo'lishi uchun o'zimizni ma'naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo'lmaslik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Mavlonova R. Umumiy pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 1997.
3. Pedagogika. Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik – Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida XXI asrdagi ta'lim va fan xalqaro ilmiy-ta'lim elektron jurnali. Chiqarish № 25 (tom 3), mart, 2022. – B.956-962.
5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarni tizimli rivojlantirish / "Fanning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Xalqaro konferensiyasi. - USA: NEW York university.